

HADISLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

Maxliyo Xurramova Bahodir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti I kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7933058>

Annotatsiya: maqolada hadislarining inson hayotidagi o'rni to'g'risida fikr bildirilgan. Maktab darsliklarida hadislarining o'qitilishi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: hadis, darslik, o'quvchi, ilm, kompetensiya, maktab, uzviylik, tajriba, adabiyot. Jahon fani, madaniyati rivojlanishiga mislsiz hissa qo'shgan ulug' allomalarimizning ma'naviy merosini o'quvchilarga tanishtirish, singdirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Shunday dolzarb masalalardan biri hadislarini maktab o'quvchilariga o'qitish masalasidir.

Komil shaxs tarbiyasida hadislarining o'rni beqiyos. Chunki hadislar orqali o'quvchilar Payg'ambarimiz s.a.vning so'zlarini, sifatlarini o'qiydi, o'rganadi, tahlil qiladi, bular orqali o'zlaridagi xato va kamchiliklarni to'g'rilashga harakat qiladilar.

"Turkistonda qadim-qadimdan boshlab boshlang'ich maktablar uchun yozilgan kitoblar bevosita hadisi sharifni o'qitishga bag'ishlangan. Maktabda o'quvchilar ilk savodini chiqarishi bilanoq hadislardan namunlar o'qib, yod olishgan."

"Hadis" arab tilida "gap-so'z" ma'nosini anglatadi. Demak, hadis deganda Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning aytgan gap-so'zlari ko'zda tutiladi va tushuniladi.

Hadis ilmi bilan shug'allanuvchi olimni muhaddis deb ataymiz. Muhaddislar asosan, hadisni Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamdan qaysi yo'llar bilan, kimlar orqali rivoyat qilinib, o'zlarigacha yetib kelganini aniqlaydigan olimlardir.

Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamdan hayotlik chog'larida vahiy kelgandan boshlab to vafotlariga qadar aytgan so'zlari, bajargan fe'llari, biron sahoba qilgan ishni tasdiqlaganlari yoki indamasalar-da, iqror qilgan narsalari hadis yoki sunnat deyiladi.

Hadis ikki qismdan iborat: sanad va matn.

Matn-sanadning kalomga borib tugashi.

Sanad, isnod-roviylarni matn bilan bog'lovchi.

Hadis darajalari: sahih, muttafaqun alayh, hasan, g'arib, zaif, mursal, mu'zal, munqoti', mudallas, mavzu', matruk, munkar, marfu', mavquf lardir.

Payg'ambarimizning aytgan so'zlari, fe'llari umuman inson hayoti va faoliyatiga oid barcha ko'rsatmalar hadislarda bayon qilingan. Shuning uchun ham hadislar Qur'oni Karimdan keyingi muhim manbadir.

Umumta'lim maktablarining 5-sinf adabiyot darsligida Imom al-Buxoriyning hayoti va faoliyati haqida, hadis va uning turlari haqida ma'lumotlar berilgan. "Al jome' as-sahih" to'plamidan "Salom berish islom amallaridandir", "G'azabni bosmoq haqida", "Yetim boqqan odamning fazilati", "Ilmning fazilati to'g'risida", "Ilm o'rganmoq va ilm o'rgatmoqning fazilati", "Yaxshi muomala qilnmog'iga kim haqliroq?", "Odam ota-onasini haqorat qilmaydi!", "Qarindoshlariga mehr-oqibatli odamning rizqi ulug' bo'lmog'i haqida", "Kibr haqida", "Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o'pib quchoqlamoqlik haqida", "Ilm-u hikmatni orzu qilmoq", "Qarindoshlariga zakot bermoq haqida", "Mo'minlarning bir-birlariga ko'maklashmoqlari (lozimligi) haqida", "Riyo va shuhratparastlik haqida", "Zolim kimdir?" mavzularida hadislar berilgan.

Umumta'lim maktablarining 5-sinf adabiyot darsligidagina hadislar haqida ma'lumot va hadislar berilgan, Boshqa darslikda bu holat uchramaydi. Bu holatda ta'limning uzviylik tamoyilidan chetlashilgan.

Hadislar inson qanday yashashi kerakligini, qanday so'zlashi kerakligini o'rgatadi. Ummat sifatidagi o'rnimizni, ilmni qanday hosil qilishni, ilmning qanday yuqishini o'rgatadi. Qisqa qilib aytganda hayot uchun tayyor dasturulamal bo'ladi. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, o'quvchidan uchta haqi bor qo'shni, ikkita haqi bor qo'shni va bitta haqi bor qo'shni haqida so'rasangiz, bu haqda ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin. Bugungi globallashayotgan dunyoda qo'shnihilik haqlari, hurmati biroz unutilayotgandek ko'rinadi. Ammo yuqoridagi haqlar haqida Payg'ambarimizning hadislarini keltirilsa, o'quvchi qo'shnihilik haqlari qanday ekanligini anglaydi. Amal qilishga harakat qiladi.

Bugun biz yosh avlodga hayoti davomida eng zarur bo'ladigan, asqatadigan, og'irini yengil qiladigan hadislarini saralab maktab darsligiga kiritsak, o'quvchi bu hadislarini mutolaa qilish asnosida o'z hayotiga tatbiq etsa, o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Shu o'rinda savol tug'iladi, birgina "Al jome as-sahih"ning o'zida 7397 hadis mavjud bo'lsa, ularsdan qay birini darsliklarga kiritamiz? Javob esa oddiy: o'quvchi yosh xususiyatlariga mos keladigan hadislar dastlab saralanadi. Keyin maxsus tajriba-sinovdan o'tkaziladi. Tajribadan o'tib, o'quvchilar mutolaa qilish jarayonida anglab yetgan, hayotiga tatbiq eta oladigan hadislar maktab darsliklariga kiritiladi. Yuqorida umumta'lim maktablarining 5-sinf darsligiga kiritilgan mavzularni biz bejizga keltirmadik. Ilm, ota-onaga salom berish, yetim boqqan kishining mukofoti haqidagi hadislar juda ham to'g'ri tanlangan. Endi bu kabi hadislarini 6-7-8-8-10-11-sinf o'quvchilarining yoshiga moslab davom ettirish, ularga munosib mavzularda hadislarini keltirish lozim.

Ma'lumot o'rnida, 10-11-sinf darsligiga nikoh, oila, farzand haqidagi hadislarini kiritish maqbul bo'ladi, deb o'ylaymiz. Albatta, bu bizning fikrimiz. Hadislar o'qitilishi yuzasidan ilk qadamimiz. Maxsus tajriba-sinovlar o'tkazilib, statistik ma'lumotlar aniq bo'lgach, aniq ma'lumot bera olamiz. Mushohada qilish uchun bir faktni keltiramiz. Joriy 2022-yilda maktabni bititganlarning 23 % talaba bo'ldi. 2022-yilda maktabni bitirgan 295 393 nafar o'quvchi OTMga hujjat topshirdi. Ularning 85 869 nafari talaba bo'ldi. Bu yil maktab bitiruvchilaridan 295 393 nafari, ya'ni 77 foizi oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida qatnashdi.

Endi 11-sinf bitiruvchilari soniga e'tibor qaratamiz. 11-sinf bitiruvchilarining 209,6 ming nafarini (53,3%) qiz bolalar va 183,3 ming nafarini (48,6 %) o'g'il bolalar tashkil etmoqda.

Anglashiladiki, maktabni bitirgan qizlar ko'rsatkichi ko'proq. OTMga qabul qilingan talabalar o'qishni davom ettiradi. Qabul qilinmagan o'quvchilarning ba'zilari tayyorgarlikni davom ettirib, keying yil ham OTMga kirish imtihonlariga hujjat topshiradi. Ba'zilarni esa mustaqil hayot, onalik hayoti kutib oladi. Aynan shuning uchun ham 10-11-sinf darsliklariga Nikoh, oila, farzand mavzusidagi hadislarining kiritilishi foydali bo'ladi. Dinimizda sovchilik, nikoh haqida nimalar deyilgan, Rasululloh sunnatlarida nimalar keltirilganligini o'quvchi ham bilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Farzandini majburlab, ilm olishiga sharoit, vaqt yaratmayotgan ota-onalarga bu eslatma bo'ladi. Jamiyatimizdagi bugungi illatlardan biri yosh oilalarning buzilib, er-u xotin ajrashib, orada necha-necha farzandlar otasiz, onasiz bo'lib qolayotganligi barchamizga ma'lum. Ana shu illatning oldi olinadi. Yigitdir, qizdir xotinlik burchlarini, erlik burchlarini bilsa, anglasa, ertaga yosh oila buzilmaydi, bolalar yetim bo'lib qolmaydi. Erni

faqat pul topib keluvchi deya, kelinni faqat barcha yumushlarni qiluvchi degan “an’anaga” amal qiladigan jamiyatga aylanib qolmaymiz shunda. “Deganim degan, aytganim aytgan” deya mutlaq hukmronlikni qo’lga olgan oila boshliqlari ham sekin ayoli bilan maslahatlashadigan jamiyat paydo bo’ladi. Albatta, jamiyatda hamma qatlam bunday emas. Ammo bu kabi toifalar ham uchrab turadi.

Oila boshlig’i bo’lmish erkak oilani moliyaviy ta’minlanishi o’z gardanida ekanligini to’liq anglab yetsagina ayollar bugun ojiz vujudlari bilan erkaklar qilishi lozim bo’lgan og’ir ishlarni bajarmaydi. Qop ko’tarib opul topish ilinjida ko’chaga chiqib, farzand tarbiyasini unutib qo’ymaydi. Oilada ota hurmati ham, ona hurmati ham o’z o’rnida bo’ladi. Mana sabablar va oqibatlar qay tomonlarga olib kelyapti.

Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam so’zlariga amal qilib, itoat etmasdan, u zotning hukmlariga taslim bo’lmasdan iymonli bo’la olmaslikni, ya’ni iymon da’vosini qila olmaslikni Alloh taolo Niso surasida: “Yo’q, Robingga qasamki, o’z oralarida chiqqan kelishmovchiliklarga seni hakam qilmagunlaricha, keyin chiqqan hukmingga nafslariga tanglik topmasdan, butunlay taslim bo’lmagunlaricha, zinhor mo’min bo’la olmaslar!”, deydi.

Umumtalim maktablarining 5-sinf Adabiyot darsligidan boshlangan bu ishni an’ana sifatida davom ettirish lozim. “Hadislar olami” yoki “Hadis ummoniga sayohat” sarlavhasi ostida har bir darslikka kiritish kerak. Albatta, yosh toifasiga mos keladigan hadislar kiritiladi.

Hadislarni rivoyat qiluvchi muhaddis kim, sahoba kim ekanligi keltirilib, muhaddisning hayoti va ijodi haqida ma’lumot keltirish o’quvchining ilmga rag’batini oshiradi. Chunki u zotlar yoshligidan ilmga “hirs qo’yg’an”lardir.

Hadislardan keyin esa o’quvchining nimani anglaganligini, hadis nima haqda ekanligini bilishi, mustahkamlanishi uchun topshiriqlar beriladi.

Hadislarning nasux va mansux kabi turi haqida ma’lumotga ega bo’lish ham ularni tushunishga, tahlil qilishga yordam betadi. Aks holda, hadislarini to’g’ridan to’g’ri tushunish yanglishishga, asl ma’nodan chetga chiqishga sabab bo’ladi.

Hadislarni adabiyot boshlang’ich sinf darsliklariga, jumladan o’qish kitobiga, odobnoma, adabiyot darsliklariga kiritish, bir mavzu doirasida bir hadis qo’llab, fikrni tushuntirish kabi bir qancha masalalarni Alisher Bolibekov Abdusalomovich “Adabiy ta’lim orqali o’quvchilar axloqiy fazilatlarini takomillashtirishda hadislardan foydalanish yo’llari” nomli dissertatsiyasida taqqiqot ishlarini olib borgan edi. Mazkur ish 2008-yilda amalga oshirilgan bo’lib, Odobnoma darsligi hozir amalda emas, Odobnoma, Milliy istiqloq g’oyasi va ma’naviyat asoslari, Dinshunoslik fanlari birlashtirilib, Tarbiya darsligi shakllantirilgan. Bu darslik hozir amalda. Muallif o’z tadqiqotida she’rlar yoki kichik nasriy asarlar bilan ham hadislarini integratsiya qilib, darsni qiziqarli va foydali qilishni o’z tadqiqotiga asos qilib olgan.

Meruyert Pazilova Yermekbayevna esa “O’quvchi ma’naviyatini hadislar vositasida shakllantirishning pedagogik asoslari” dissertatsiyasida Milliy istiqloq g’oyasi va ma’naviyat asoslari va dunyo dinlari tarixi o’quv fanlari misolida o’z tadqiqotini olib borgan.

Biz esa o’z tadqiqotimizda Imom Buxoriyning “Hadislar”ini yirik manba Kaykovusning “Qobusnoma” va Abayning “Nasihatlar” kitoblari asosida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari asosida o’rgatishni maqsad qildik. Bu uch manba adabiyot darslarida va mustaqil o’qish darslarida, sinfdan tashqari o’qish mashg’ulotlarida qiyosiy tahlilda o’rgatiladi.

Hadislarni o'rgatish dogmatik usulda emas, tushungan holda ongli tashkil etilishi kerak. Hadisning mohiyatini o'quvchi to'la anglab yetsagina vaziyatlarda qo'llay oladi. Aks holda, u darslik maktab va sinfda qolib ketaveradi.

Har bir sinf Adabiyot darsligida Hadislar berish va tahlil qilish o'quvchilar uchun, O'zbekistonning ertangi kelajagi va rivojlanishi uchun nihoyatda muhim va salmoqli masaladir.

References:

1. Bolibekov Alisher Abdusalomovich. Adabiy ta'lim orqali o'quvchilar axloqiy fazilatlarini takomillashtirishda hadislardan foydalanish yo'llari. Toshkent:2008
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Hilol Nashr. -Toshkent: 2022.-B.8
3. Al-faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbeh ul-g'ofiliyn. Mutarjim. Toshkent.2003.-B.5
4. Al-faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbeh ul-g'ofiliyn. Mutarjim. Toshkent.2003.-B.6
5. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. T.: SHARQ.2020. -B 20-31.
6. Gazeta.uz sahifasidan olindi
7. Daryo.uz sahifasidan olindi
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Hilol Nashr. -Toshkent: 2022.-B.13